



ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA TA'LIMIIY O'YINLARDAN FOYDALANISH

Ismatova Vasila Shodmanovna

*Toshkent shahar Uchtepa tumani 81-IDUMning ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi*

Annotatsiya: *“Ona tili va adabiyot darslarida ta'limiy o'yinlardan foydalanish” mavzusida tayyorlangan ushbu metodik tavsiya orqali ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarini kreativ, zamonaviy g'oyalar bilan tanishtirish, darslarda turli xil o'yin, topshiriq va jadvallar bilan ishlash, fanlararo bog'liqlikka asoslanib, turli metodlardan foydalanishning zamonaviy hayotdagi rolini ochib berishga harakat qildik. Shunday ekan, o'qitish samaradorligini oshirish, o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish hamda darslarni qiziqarli o'tkazishda psixologik va pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish, o'qitish mazmuniga mos dasturiy ta'minotini ishlab chiqish, ularni o'quv jarayoniga joriy etish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Ushbu vazifalarni dolzarbligini e'tiborga olgan holda ona tili fanini o'qitishda yangi metodikalardan foydalanish holatini o'rganish, tahlil etish, ulardan samarali foydalanish, mos metodik tavsiyalarni ishlab chiqish zarurligini inobatga olgan holda ushbu metodik tavsiya ishlab chiqildi.*

Kalit so'zlar: *ta'limiy o'yinlar, ta'lim samaradorligi, fanlararo aloqa, ta'limda integratsiya, yangi metodikalar*

Аннотация: *Методическое руководство «Использование образовательных игр на уроках родного языка и литературы» направлено на ознакомление учителей с креативными и современными идеями, различными играми, заданиями и таблицами, а также методами междисциплинарной интеграции в образовательном процессе. Основной целью является повышение эффективности обучения, организация учебных занятий и проведение увлекательных уроков с применением психологических и педагогических технологий. Важно разрабатывать и внедрять соответствующее*



программное обеспечение, отвечающее содержанию обучения. Учитывая актуальность данных задач, данное методическое руководство разработано с целью изучения, анализа и эффективного применения новых методик в преподавании родного языка.

Ключевые слова: образовательные игры, эффективность обучения, междисциплинарная связь, интеграция в образовании, новые методики

Annotation: *The methodological guide "Using Educational Games in Native Language and Literature Lessons" aims to introduce teachers to creative and modern ideas, various games, tasks, and tables, as well as methods of interdisciplinary integration in the educational process. The main objective is to enhance the effectiveness of teaching, organize learning activities, and conduct engaging lessons using psychological and pedagogical technologies. It is essential to develop and implement appropriate software that aligns with the educational content. Considering the relevance of these tasks, this methodological guide has been developed to study, analyze, and effectively apply new methods in teaching the native language.*

Key words: *educational games, teaching effectiveness, interdisciplinary connection, educational integration, new methodologies*

O‘qitish nazariyasida yangi pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalari bir-biridan ajratilmagan, chunki yangi pedagogik texnologiyalarning keng joriy etilishi ta’lim paradigmagini o‘zgartiradi va faqat zamonaviy axborot texnologiyalari yangi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishni ta’minlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ta’lim tizimining Davlat ta’lim standartini ishlab chiqish va joriy etish to‘g‘risida”gi qarori, “Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori asosida ta’lim tizimini qayta ko‘rib chiqish va isloh qilish bo‘yicha ilgari surilgan talablar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda [1]. Barcha fanlar, jumladan, O‘zbekiston tarixi bo‘yicha ham yangi o‘quv dasturlari ishlab chiqilib, ularga



muvofig xalqaro standartlarga javob beradigan elektron darslik va o'quv qo'llanmalar yaratildi. Shuningdek, fan o'qituvchilari sinfda va sinfdan tashqari ishning turli shakllarini aks ettiruvchi, AKT va interfaol o'qitish usullaridan foydalanish asosida turli vazifalarni o'z ichiga olgan o'quv-uslubiy majmualarni yaratadilar. Fanlarni o'qitishda an'anaviy o'qitish usullarini innovatsion texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Yangilangan „Ona tili“ darsliklarida talaffuz va imlo me'yorlari, so'z qo'llash me'yorlari, nutqning grammatik va punktuatsion me'yorlariga oid mavzular ta'limiy-didaktik topshiriqlar bilan boyitildi, ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, darsda o'quvchilarning nutqiy malakasini yuzaga keltirish savodxonligini oshirish hamda nutqiy (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish) va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida nutqiy mavzular va matnlar kiritildi. Berilgan nutqiy mavzularga oid matnlar, o'quvchini mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan mashqlar, savol va topshiriqlar, nutqiy mavzular mazmuniga mos rasm va illustratsiyalar grammatik mavzu bilan bog'landi.

“O'rmonda” o'yini

Bu o'yindan ona tili darslarida ham, adabiyot darslarida ham foydalanilsa bo'ladi. Ushbu o'yin adabiyot darsida badiiy asar parchalarini o'qigandan so'ng o'quvchilarning asarni qanchalik sinchkovlik bilan o'qiganliklarini sinash maqsadida o'tkaziladi. Buning uchun o'qituvchi tomonidan o'rganilgan asardan biror parcha tanlanib, shu parchadagi gaplar tarkibidagi so'zlar o'zni almashtirilib yozilgan holga keltiriladi, yoki qog'ozlarga qirqib qo'yish ham mumkin. O'quvchilar bu so'zlarni belgilangan vaqt oralig'ida gapga aylantirib, matn holatiga kelirishi kerak bo'ladi. **Masalan:**

- 1) yigit, bitgandek bo'ladi, oylar, qalbidagi, oylar, yara, o'tib.
- 2) jo'sh uradi, bo'lgan, mehri, yana, maktabiga, qishlog'i-yu, bo'lgan.
- 3) azalgi, o'zini, u, qaytganday, ahvoliga, his etadi.

Javob: *Oylar o'tib, yigit qalbidagi yara bitgandek bo'ladi. Qishlog'i-yu maktabiga bo'lgan mehri yana jo'sh uradi. U azalgi ahvoliga qaytganday his etadi o'zini.* [2].



(Ushbu asar yuzasidan tayyorlangan topshiriqlarni 1-ilovada ko'rishingiz mumkin)

Ona tili darslarida esa bu o'yinni har bir bo'lim yoki mavzular bo'yicha qo'llash mumkin. Deylik, morfologiya bo'yicha qo'llanilganda turli so'z turkumlariga xos bo'lgan ko'plab so'z kartochkalarini (qog'ozga yozilgan va laminatlangan) markazga qo'yib belgilangan vaqt oralig'ida aytilgan so'z turkumiga oid so'zlarni saralab savatga solishi kerak bo'ladi. Belgilangan vaqt oralig'ida so'zlar to'liq yig'ib olinmasa, jamoa bir a'zosidan ayriladi. Ya'ni o'rmonda bo'ri hamlasiga uchraydi. **Masalan:**

Nilufar, kamtar, uchinch, tez, ayiq, go'zal, kichik, idish, beshovi, mard, qo'rqoq, buvi, kamtarona, yillab, uxlamog, ko'p.... Ushbu so'zlar orasidan faqat ot turkumiga oid so'zlarni saralab, savatga solish kerak.

Qaynoq koptok

Men bu o'yindan maktab hovlisida, maktab bog'ida, maktab stadionida foydalanishni qiziqarli va samarali deb bilaman. Sababi o'quvchilar uchun faqat sinf xonasida emas, balki turli joylarda o'rganilgan va noodatiy darslar qiziqarliroq hisoblanadi. Shuningdek jismoniy tarbiya darsini sevmaydigan o'quvchilar juda kam topiladi. Bu o'yin jismoniy tarbiya darsi bilan integratsiyalashgan o'yin hisoblanadi. O'yin sharti: O'quvchilar ikki tomonga bo'linishadi, so'zlar kartochkasi markazga qo'yiladi. Navbati bilan bittadan a'zo o'rta savatcha bilan kiradi hamda qaynoq koptokdan o'zlarini himoya qilgan holda kerakli so'zlarni terib savatga joylaydi. Qaynoq koptokni o'ziga tekkizmasdan kerakli so'zlarni saralab olgan guruh g'olib bo'ladi. Ta'rif va ijodkor Bu usuldan guruhlariga bo'lingan holda foydalanish mumkin. Oldindan topshiriqlar beriladi. Guruhlar shartli ravishda nomlanadi, masalan "Ta'rif beruvchilar" va "Ijodkor" guruhi. Birinchi guruh ikkinchi guruhga ta'riflarni aytadi. Shundan so'ng guruhlar ushbu ta'rif qaysi ijodkorga tegishli ekanligini topadi. Agar birinchi berilgan ta'rifdan so'ng darrov bu ta'rifning qaysi yozuvchi yoki shoirga tegishli ekanligini topishsa, 5 ball, ikkinchi ma'lumotdan so'ng topishsa, 4 ball va uchinch urinishda topsalar 3 ball yig'ishadi. O'qituvchi



ta'rif qaysi ijodkorga tegishli ekanligini topgan guruhdan yana ijodkor hayoti va faoliyatiga doir ma'lumotlar qo'shimcha qilishini so'raydi va baholab boradi. Bu metod orqali har bir o'quvchi ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, 8sinf adabiyot darsida bu metoddan quyidagicha foydalanish mumkin:

“Ta’rif” guruhidan “Ijodkor” guruhiga savollar.

1-bosqich

1-ma'lumot. U she'riyatimizga shamolday kirib keldi. Balki bo'ronday.

2-ma'lumot. Lermontovning “Iblis” dostonini o'zbekchaga o'girdi.

3-ma'lumot. “Naxshon” dostonlari muallifi.

Javob : Usmon Nosir

2-bosqich.

1-ma'lumot. Umrining oxiriga qadar “Jahon adabiyoti” jurnali bosh muharriri vazifasida ishlagan.

2-ma'lumot. Ilk kitobi “Zamon. Qalb. Poeziya” deb ataladi.

3-ma'lumot. Oxunqaynar qishlog'ida tug'ilgan.

Javob : Ozod Sharafiddinov

“*Ta'rif va ijodkor*” usuli orqali o'quvchilar mavzuni mukammal o'zlashtiribgina qolmay, o'qituvchi ularni faollikka, topqirlikka o'rgatadi va oqilona baholay oladi.

So'z ohangrabosi

Mazkur usuldan adabiyot darslarida, xususan, maqol, topishmoq va she'rlar, ona tili darslarida so'z turkumlari, gap bo'laklari bo'yicha o'tilayotgan mavzularni uyg'unlashtirishda foydalanish mumkin. O'quvchilar kichik-kichik 3 guruhga bo'linib olishadi va guruhlariga “Maqol”, “Topishmoq”, va “She'r” singari nomlar tanlashadi. 8-sinf ona tili darsida gap bo'laklari mavzusi o'tilganda mazkur usuldan quyidagicha foydalansa bo'ladi: birinchi guruh maqol aytganda, ikkinchi guruh aytilgan maqoldagi gap bo'laklarini topib, tahlil qiladi va o'zlari uchinchiguruhga topishmoq aytishadi. Uchinchiguruh o'z navbatida topishmoqni tahlil qilib, to'rtinchiguruhga she'r aytadi va musobaqa shu zaylda davom etadi. Masalan:

1-guruh: Avval o'yla, keyin so'yla.



2-guruh: Bu gapda avval va keyin sozlari payt holi, o'yla va so'yla so'zlari kesimlardir. Ikki mahbubni ko'rdim, Bir-birisin ko'rmagan.

3-guruh: Bu gapda ikki so'zi aniqlovchi, mahbubni va bir-birisin so'zlari to'ldiruvchi, ko'rdim va ko'rmagan so'zlari esa kesimlardir. Yurtim, senga she'r bitdim bugun, Qiyosingni topmadim aslo. Shoirlar bor o'z yurtin butun, Olam aro atagan tanho.

1-guruh: Yurtim so'zi undalma, senga, she'r qiyosingni, yurtin, olam aro so'zlari to'ldiruvchi; bitdim, topmadim, bor, atagan so'zlari kesim; bugun, also, tanho so'zlari hol; shoirlar -ega. Aytar so'zni ayt, aytmaz so'zdan qayt. [3]. Bu maqolni 2-guruh tahlil qiladi va 3-guruhga topishmoq etish bilan davom ettiradi.

$A \times B$ (A karra B) yoki A^2 (A kvadrat)

Bu o'yin orqali sinf o'quvchilarining barchasini alifboni yod olishiga erishish mumkin. Bu o'yin matematika bilan integratsiyalashgan o'yin bo'lganligi sababli barcha o'quvchilar karra jadvalini ham to'liq yod olgan bo'lishlari kerak. O'yin yakka tartibda yoki jamoaviy shaklda ham olib borilishi mumkin. Buning uchun (yakka tartibda) xohlagan o'quvchi doskani oldiga chiqadi, o'qituvchi yoki sinf o'quvchilari alifboni karra shaklida yoki kvadrat shaklida so'raydi. Guruh shaklida o'ynalganda esa o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlab qo'yilgan alifbo karrasiga doir yoki alifbo kvadratiga oid misollar jamoalarga beriladi. Masalan: 1) $B \times A = ?$ Javobi esa B ga teng

Sababi alifboda B harfi 2- o'rinda , A harfi esa 1- o'rinda turadi . Bunda $2 \times 1 = 2$ shakli kelib chiqmoqda.

(2-ilovada $A \times B$ jadval asosida 2 karra berilgan)

2) $B^2 = ?$ $D^2 = ?$ $E^2 = ?$ Javoblari: $B^2 = 4$ $D^2 = 9$ $E^2 = 16$

Sababi B alifboda 2-o'rinda, D 3- o'rinda, E- 4-o'rinda joylashgan . Shu tartiblarni biz kvadratga ko'tarib qo'ydik, xolos.

(3-ilovada A^2 (A kvadrat) jadvali to'liq holda berilgan)

Xulosa

Ona tili ta'limi orqali o'quvchilarga uzoq yillar davomida grammatik qonun-qoidalarni, nazariy bilimlarni o'rgatib keldik. Aslida esa grammatikadan ko'ra



o'quvchilardagi nutqiy kompetensiyani shakllantirishga ko'proq e'tibor berishimiz lozim. Bu maqsadga erishishda ona tilining nutqiy kompetensiya elementlari (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish)ni har bir darsda amaliy qo'llash va o'quvchida bunga nisbatan ko'nikma shakllantirishimiz dardkor.

Mazkur metodik tavsiyada o'quvchilarga ona tili va adabiyot fanidan bilim berish jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni, metodlarni qo'llash bo'yicha ayrim tavsiyalar va ko'rsatmalar berilgan. Ushbu metodik tavsiyadagi ma'lumotlar Sizlarga manfaatli bo'ladi degan umiddamiz.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashni istardimki, o'qitish amaliyotida o'qitishning interfaol usullaridan foydalanish o'quvchilarning intellektual faolligini, demak, dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Hatto eng passiv o'quvchilar ham katta ishtiyoq bilan faol mashg'ulotlarga jalb qilinadi, ularda original fikrlash va hal qilinayotgan muammolarga ijodiy yondashish ko'nikmalari rivojlanadi.

Asosiysi, interfaol usuldan foydalanish jamiyat buyurtmasini bajarishga, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishga qodir shaxsni tayyorlashga yordam beradi. Interfaol usul va usullardan foydalanish o'z-o'zidan maqsad emas, natija muhim. O'qituvchi o'z muvaffaqiyatini shogirdlarining muvaffaqiyati bilan o'lchashi kerak.

Turli metod va usullar o'quvchilarning o'quv motivatsiyasi va maktabga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ijodiy hamkorlik muhitini yaratadi, o'quvchilarda o'zo'zini hurmat qilish va farqlarni hurmat qilishni rivojlantiradi, ularda ijodiy erkinlik tuyg'usini uyg'otadi va eng muhimi, ularga quvonch baxsh etadi. Yosh avlod qalbida ona tiliga muhabbat, ona tilini e'zozlash urug'larini qadashdek mashaqqatli va mas'uliyatli ishingizga muvaffaqiyat tilaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T.: O'zbekiston, 1998. -32b.
2. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik.T., 2019
3. *Мясоед, Т. А.* Интерактивные технологии обучения: спец. семинар для учителей [Текст] / Т. А. Мясоед. - М., 2004.
4. Ona tili .Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik.T., 2019 5. Ona tili fanidan o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. T., 2020

**Ilovalar 1-ilova**

8-sinf adabiyot darsida Shukur Xolmirzayevning “Ot egasi” asari asosida “O‘rmonda” o‘yini

1.Maktab ikki xonadan iborat bo‘lib, biri dahliz, biri sinfxona. 2. Ana shu sinfda yetti yashar bolakay ham, o‘n ikki yashar yigitcha ham yonma-yon o‘tirib o‘qishadi. 3. Ularning har biri har xil sinf o‘quvchisi bo‘lgani holda, bir sinfda o‘tirib saboq olishlari bir-biriga xalaqit bermaydi. 4. Chunki bu atrofda bundan o‘zga maktab yo‘q, shu yerga qatnab, imkoni boricha ilm oladilar. 5.Inodning o‘zi vaqtida o‘n sinfni bitirgandi, xolos.

Biri,ikki,iborat, biri, maktab, dahliz, xonadan, sinfxona.

1. Yetti, ana shu, bolakay, ham,yashar, yigitcha, yonma-yon, sinfda, o‘n ikki, o‘tirib, ham, o‘qishadi.
2. Saboq olishlari, har biri, sinf, bo‘lgani, ularning , bir, har xil, o‘quvchisi, xalaqit bermaydi, bo‘lgani holda, sinfda, bir-biriga
- 4.yo‘q, chunki,ilm oladilar, bundan, shu, bu atrofda, o‘zga, shu yerga, maktab, imkoni boricha, qatnab.
- 5.xolos, bitirgandi, vaqtida, Inodning, o‘n sinfni, o‘zi.

2-ilova**BxA jadvali uchun alifbo**

1 A	2 B	3 D	4 E	5 F
6 G	7 H	8 Ii	9 Jj	10 Kk
11 L	12 M	13 N	14 O	15 P
16 Q	17 R	18 S	19 T	20 U



21 V	22 Xx	23 Yy	24 Zz	25 O'
26 G'	27 Sh	28 Ch	29 Ng	0 Nol

BxA (B karra A)

B (2 karra)	x	A (1)	B	2
B	x	B (2)	E	4
B	x	D(3)	G	6
B	x	E (4)	Ii	8
B	x	F (5)	K	10
B	x	G (6)	M	12
B	x	H (7)	O	14
B	x	I (8)	Q	16
B	x	J (9)	S	18
B	x	K (10)	U	20



Izoh: Alifboda 29 ta harf borligi sababli, 29 dan keyingi raqamlarni ifodalashda Harflar ketma-ketligidan foydalaniladi. 0 ni ifodalashda esa 0 dan foydalaniladi.

3-ilova A^2 (A kvadrat)

1 A2 1	2 B2 4	3 D2 9	4 E2 16	5 F2 25
6 G2 36	7 H2 49	8 I2 64	9 Jj2 81	10 Kk2 100
11 L2 121	12 M2 143	13 N2 169	14 O2 196	15 P2 225
16 Q2 256	17 R2 289	18 S2 324	19 T2 361	20 U2 400
21 V2 441	22 Xx2 484	23 Yy2 529	24 Zz2 576	25 O'2 625



26 G'2 676	27 Sh2 729	28 Ch2 784	29 Ng2 841	
------------------	---------------	---------------	---------------	--